

**YUKSAK MA‘NAVIYATLI YOSHLARNI TARBIYALASHDA O‘RTA OSIYO
ALLOMALARINI ILMIY MEROSINING O‘RNI**

Jo‘raboyev Javohir

*Namangan Davlat Universiteti Matematika fakulteti
„Amaliy matematika“ yo`nalishi 2-kurs talabasi*

O‘rta Osiyo tarixiy voqealarga g‘oyat boy o‘lka bo‘lishi bilan birga azaldan ilm-fan, madaniyat va ma‘naviyat markazlardan biri bo‘lib kelgan. Bu o‘ka dunyoga, ma‘naviy va ma‘rifatning barcha sohalarida yuzlab, minglab jahonshumul, ulug‘zotlar, davlat arboblarini tarbiyalab bergan. Umumbashariyat ma‘rifatparvarligini yaratishda buyuk ajdodlarimiz bevosita ishtirok etganlar, uning taraqqiyotiga ulkan hissa qo`shganlar. O‘rta Osiyoning madaniy merosi jahon madaniyati va ma‘rifatining uzviy ajralmas qismidir. Ajdodlarimiz e’zozlab kelgan, asrlar qa’ridan olib o‘tilgan falsafiy, axloqiy pand-nasixadlar, qadriyatlar ataylab, maqsadni ko‘zlab yurgizilgan siyosat qurban bo‘ldi, e`tibordan chetda qoldi. Bu esa yosh avlodning ma‘naviyatiga salbiy ta’sir o’tkazdi. Vaholanki, birinchi prezidentimiz Islom Karimov

“O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo`li “kitobida ta`kidlangandek: „O‘tmishdagi allomalarining bebafo merosi qanchadan qancha avlodlarning ma‘naviyruhiy ongini va turmush tarzini shakllantirgan edi va u hamon ta`sir ko`rsatmoqda.“.

IX-XV asrlarni Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarida shartli ravishda „Renessans“ ya’ni „Uyg`onish davri“ deb atashadi. Ma‘naviyat va ma‘rifatning g‘oyat gullab yashnashi, bu davr uchun xarakterli bo‘lgan. Bu davrda qomusiy ilm egalari, ajobiy shoirlar, buyuk davlat arboblari yetihib chiqqan. Renessans – uyg`onish davri namoyondalari qarashlaru insonning cheksiz imkoniyatlariga, uning irodasiga aql-idrokiga ishonib qarashi bilan ajralib turadi.

Mamlakatimiz dunyo-tamadduni va Islom diniga ulkan hissa qo`shgan. Ulug`allomalar, aziz avliyolar yurti sifatida shuhrat qozongan. Ajdodlarimiz bebafo merosini ilmiy asosda chuqur o‘rganish milliy qadriyatlarimizni asrab avaylash, ularni yanada rivojlantirish yuzasidan juda ko‘p ishlar amalga oshirmoqda. Buning boisi shundaki, O‘rta Osiyo allomalari Sharq uyg`onish davri uchun katta ishlarni amalga oshirgan. Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati ko‘hna va boy tarixga ega. Buni eng avvalo, ushbu zaminda eramizdan avvalgi davrlardayoq qadimgi baqrtya, sog`d kabi yozuvlar isbotlaydi. Buning natijasida ushbu zaminlardan ko`plab olim-u ulamolar yetishib chiqqan. Miso uchun asrtronomiyada Abu Rayhon Beruniy, tibbiyotda Abu Ali ibn Sino, falsafada Abu Nasr Farobi, matematikada al-Xorazmiy va shuningdek, hadis, shariat ilmlari bo‘yicha ulamolar kamol todi. Ilm-fanning rivojlanishi O‘rta asrlardagi Uyg`onish davri asosi bo‘ldi. Shuning uchun ham biz bu payt allomalarini, O‘rta asr gultoji “deb atashimiz mumkin. Insoniyat tamadduniga ulkan hissa qo`shgan bu zotlar haqida qancha gapirsak ham oz. Ilm-fan inson kamolotiga poydevor, ma‘rifat va

ma'naviyat esa barkamollik ustunlaridir. Zero , qadim Sharqda ta'lif va tarbiya hech vaqt ayro yoki biri ikkinchisidan ustun baholanmagan . Bu esa dunyo tamadduniga tamol toshlarini qo'ygan Imom Buxoriy , al-Farg'oniy , al-Xorazmiylar, Imom Nasafiyilar kabi ne-ne dovrug'i dunyoga doston , ulug' qomusiy allomalar bebaho merosida ham namoyondir.

Ulug` ajdodlarimizning donishmandlik an'analariga amal qilib , bugun O'zbekiston o`z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo`ydi. So`nggi besh yilda mamlakatimizda turli millat va konfessiyalar o`rtasida o`zaro hurmati , birdamlik va hamkorlik muhitini mustahkamlash , madaniyatlararo muloqotni qo'llab-quvvatlash hamda tinchlik va totuvlikni ta'minlashga qaratilgan izchil va puxta o`ylangan siyosat xalqaro hamjamiyat tomonidan to`liq qo'llab-quvvatlanmoqda. Bundan tashqari, mamlakatimizda yoshlarni ma'nani va jismonan barkamol qilib tarbiyash , ularni davlat va jamiyatning rivojiga keng jalg etishda ajdodlar merosi , jumladan , tasavvuf ilmi , naqshbandiya ta'limoti va xalq pedagogikasiga qaratilgan, yuksak e'tibor yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash , ularda teran dunyoqarashi, sog'lom e'tiqod , ma'rifatlilik kabi fazilatlarni shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Respublikamizda dininy , ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo`nalishlari sifatida islom va jahon sivilizatsiyasiga bebaho hissa qo'shgan ajdodlarimizning boy madaniy merosini chuqur o'rganish asosida yoshlarning ong-u tafakkurini shakllantirishi globallashuvi sharoitida jamiyatimizadagi ijtimoiy ma'naviy muhit barqarorligi va e'tiqod erkinligiga tahdid tug`dirishi mumkin bo`lgan omillarni barvaqt aniqlash va oldini olishga qaratilgan axborot-tahliliy faoliyatini kuchaytirish kabi vazifalar belgilangan. Yoshlarda kasbiy kompetentikni tarbiyalash ularni ijod qilishga undash izlanish va mukammallikka erishishda ustozi shogird an'analarini hozirgi kunga tatbiq etishimiz lozimdir, lekin ushbu an'analarни, buyuk , allomalarimiz boy merosidan foydalangan holda bajarishimiz kerakligi, hozirgi kunning eng dolzarb muommolaridan biridir. Buning uchun ushbu allomalarimiz hayotini o'rganishimiz , buyuk ajdodlarimizning boy ma'naviy merosini yoshlarga yetkazish orqali ularda kesbiy kompetentlikni oshirish lozim.